O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING
FARMOYISHI

QATAG‘ON QURBONLARINING MEROSINI YANADA CHUQUR O‘RGANISH VA ULAR XOTIRASINI ABADIYLASHTIRISHGA DOIR QO‘SHIMCHA CHORA-TADBIRLAR TO‘G‘RISIDA

Vatanimiz istiqloli, xalqimizning ozodligi va erkinligi, kelajak avlodlarning tinch va farovon hayotini ta’minlash yo‘lida mardona kurash olib borib aziz jonlarini fido qilgan, mustabid tuzum davrida qatag‘on qilingan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini o‘rganish hamda targ‘ib etish borasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, o‘tgan davrda ushbu yo‘nalishda muhim farmon va qarorlar qabul qilindi. Yurtimizda 2001-yildan buyon har yili 31-avgust — “Qatag‘on qurbonlarini yod etish kuni” sifatida keng nishonlab kelinmoqda. “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi barpo etildi. “Shahidlar xotirasi” jamoat fondi, Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi hamda hududlardagi oliy ta’lim muassasalari qoshida uning bo‘limlari tashkil etildi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Is’hoqxon Ibrat, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy kabi ulug‘ ma’rifatparvar ajdodlarimiz xotirasiga bag‘ishlangan muhtasham haykallar, muzeylar bunyod etildi, ijod maktablari faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Siyosiy qatag‘on yillarida nohaq qurbon bo‘lgan yurtdoshlarimizning nomlarini aniqlash, ularning qoldirgan merosini o‘rganish va keng jamoatchilikka yetkazishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlari, badiiy va hujjatli asarlar yaratilmoqda.

Dunyoda global xavf-xatarlar kuchayib borayotgan hamda milliy o‘zlikni anglash va haqiqiy tariximizni tiklash har qachongidan ham muhim ahamiyat kasb etayotgan bugungi davrda mustabid tuzum tomonidan shafqatsiz qatag‘on qilingan davlat va jamoat arboblari, ilm-fan, madaniyat va san’at, adabiyot namoyandalarining, oddiy kasb egasi bo‘lgan minglab yurtdoshlarimizning nomlari va xotiralarini abadiylashtirish, ularning jasorati va matonati misolida yosh avlodimizni Vatanimiz va xalqimizga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Bu boradagi tarixiy ma’lumotlarni xolis va haqqoniy o‘rganish mamlakatimiz mustaqilligi qanday og‘ir va mashaqqatli kurashlar bilan qo‘lga kiritilganini, bugungi erkin, ozod va obod hayotimizni asrab-avaylab, qadrlab yashash kerakligini yanada chuqur anglashga xizmat qiladi.

Ko‘pmillatli xalqimizning fidoyi farzandlari, ma’rifatparvar ajdodlarimiz hayoti va faoliyati bilan bog‘liq haqiqatni to‘la yuzaga chiqarish, ularga nisbatan tarixiy adolatni tiklash, bu boradagi ishlarning ko‘lami va samarasini oshirish maqsadida:

1. O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini ko‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasi, Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, “Shahidlar xotirasi” jamoat fondi, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi, Madaniyat vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Xalq ta’limi vazirligi, Fanlar akademiyasi, Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, Badiiy akademiya hamda keng jamoatchilikning qatag‘on qurbonlari merosini yanada chuqur o‘rganish va ular xotirasini abadiylashtirish haqidagi takliflari qo‘llab-quvvatlansin.

2. Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish, ular xotirasini abadiylashtirish ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika ishchi guruhi (keyingi o‘rinlarda — Ishchi guruh) tashkil etilsin va uning tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Quyidagilar Ishchi guruhning asosiy vazifalari etib belgilansin:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda malakali olimlar va mutaxassislardan iborat tegishli guruhlarni tuzish;

qatag‘on qurbonlarini viloyat, tuman va shaharlar kesimida nomma-nom aniqlash, ularning hayoti va faoliyati, tarixiy xizmatlari haqidagi ma’lumotlarni, arxiv va muzeylarda saqlanayotgan hujjatlarni to‘plash va o‘rganish bo‘yicha ushbu guruhlarning faoliyatini samarali tashkil etish;

qatag‘on qurboni bo‘lgan yurtdoshlarimizning avlodlari va yaqinlari, o‘sha davr voqealarini chuqur biladigan kishilarning xotiralarini yozib olish, oilaviy arxiv va kutubxonalarda saqlanayotgan tarixiy materiallarni, noyob suratlarni to‘plash ishlarini muvofiqlashtirish;

aniqlangan qatag‘on qurbonlarining nomlarini Toshkent shahridagi “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasida barpo etiladigan ramziy kitob sahifalariga kiritish;

shahid bo‘lgan yurtdoshlarimiz xotirasini kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish maqsadida ko‘p jildlik “Qatag‘on qurbonlari” kitobi nashrga tayyorlanishi va chop etilishini ta’minlash;

Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi hamda uning hududlardagi oliy ta’lim muassasalari qoshidagi bo‘limlarining fondlari va ekspozitsiyalarini yangi topilgan ma’lumotlar, hujjatlar va boshqa eksponatlar bilan muntazam ravishda boyitib borilishini tashkillashtirish;

xorijdagi turli arxiv, muzey, kutubxona va boshqa ilmiy-ma’rifiy muassasalar hamda tegishli mutaxassislar bilan hamkorlik o‘rnatgan holda, ilmiy ekspeditsiyalar tashkil etish;

o‘rganishlar jarayonida aniqlangan, muayyan sabablarga ko‘ra reabilitatsiya qilinmay qolib ketgan qatag‘on qurbonlarini oqlash yuzasidan belgilangan tartibda takliflar kiritib borish;

qatag‘on qurbonlari hayoti va faoliyatini ilmiy tadqiq etish, ular haqida ilmiy-tarixiy kitoblar, badiiy va hujjatli filmlar yaratish ishlarini muvofiqlashtirish;

qatag‘on qurbonlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida ular tug‘ilib voyaga yetgan va istiqomat qilgan mahallalar va umumta’lim maktablarida xotira burchaklarini tashkil etish;

“Inson — aziz, xotira — muqaddas” degan g‘oya asosida barcha tuman, shahar va mahallalarda aholi, ayniqsa, yosh avlodni mustaqillik va adolat tantanasi uchun kurashgan fidoyi ota-bobolarimizning xotirasiga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning ko‘rsatgan jasorati va ibratli faoliyatlarini targ‘ib etishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarini tashkil etish.

4. Qatag‘on qurbonlarining nomlarini tiklash va xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Ishchi guruhga qatag‘on qurbonlari nomlarini aniqlash va ularning xotirasini abadiylashtirish bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish uchun davlat organlari va boshqa tashkilotlarning, ilmiy-tadqiqot muassasalarining yuqori malakali mutaxassislarini, ekspertlarni, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi diplomatik vakolatxonalari vakillarini jalb etish huquqi berilsin.

6. Vazirlar Mahkamasi ikki oy muddatda Toshkent shahridagi “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasida qatag‘on qurbonlarining nomlari qayd etiladigan ramziy kitobni yaratish, Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi va uning hududlardagi oliy ta’lim muassasalari qoshidagi bo‘limlarining, shuningdek “Shahidlar xotirasi” jamoat fondining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, fondning homiylar guruhi tarkibini yangilash va ular tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish hamda xalqaro moliya institutlari, xorijiy tashkilotlar, donor mamlakatlar va tashkilotlarning grantlarini jalb etish yuzasidan Hukumat qarorini qabul qilsin.

Bunda, jumladan, xorijdagi turli arxiv, muzey, kutubxona va boshqa ilmiy-ma’rifiy muassasalar hamda tegishli mutaxassislar bilan hamkorlik qilish, chet eldagi mavjud manbalarni izlab topish va o‘rganish, shuningdek qatag‘on qurbonlari haqida yangi badiiy va hujjatli filmlar tayyorlash, xotira kitoblari va fotoalbomlarni nashr etish, tashkiliy ishlarni moliyalashtirish masalalari ko‘zda tutilsin.

7. Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi, O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O‘zbekiston Milliy axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga ushbu farmoyish ijrosini ta’minlashga qaratilgan tadbirlarni keng yoritish, mavzuga oid teleko‘rsatuv va radioeshittirishlarni efirga uzatish hamda matbuot nashrlari va Internet sahifalarida maqolalar e’lon qilish tavsiya etilsin.

8. Mazkur farmoyishning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N. Aripov, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchilari R.S. Qosimov va A.A. Abduvaxitov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2020-yil 8-oktabr,
F-5598-son

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi F-5598-son farmoyishiga

1-ILOVA

Qatag‘on qurbonlarining merosini yanada chuqur o‘rganish, ular xotirasini abadiylashtirish ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish bo‘yicha Respublika ishchi guruhining

TARKIBI

R. Qosimov	—	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi, *ishchi guruh rahbari*
B. Musayev	—	O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari, *Ishchi guruh rahbari o‘rinbosari*
X. Sultonov	—	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi — Spichrayteri
A. Jo‘raboyev	—	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi o‘rinbosari
K. Kamilov	—	Oliy sud raisi
B. Qurbonov	—	mudofaa vaziri
P. Bobojonov	—	ichki ishlar vaziri
T. Ishmetov	—	moliya vaziri
O. Nazarbekov	—	madaniyat vaziri
I. Majidov	—	oliy va o‘rta maxsus ta’lim vaziri
Sh. Shermatov	—	xalq ta’limi vaziri
R. Mamatov	—	mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vaziri
B. Zokirov	—	qurilish vaziri
R. Abdullaxanov	—	Davlat xavfsizlik xizmati raisi o‘rinbosari
F. Arziyev	—	tashqi ishlar vazirining birinchi o‘rinbosari
A. Xodjayev	—	Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktori
B. Yuldashev	—	Fanlar akademisi prezidenti
U. Yusupov	—	“O‘zarxiv” agentligi direktori
S. Turdiyev	—	“Nuroniy” jamg‘armasi respublika boshqaruvi raisi
S. Saidov	—	O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi
S. Hakimov	—	O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi raisi
M. Xojimatov	—	Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi rahbari
A. Nuridinov	—	O‘zbekiston Badiiy akademiyasi raisi
F. Abduxoliqov	—	“O‘zbekkino” Milliy agentligi bosh direktori
A. Xadjayev	—	O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi raisi
A. Ko‘chimov	—	O‘zbekiston Milliy axborot agentligi bosh direktori
B. Hasanov	—	Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi direktori

A. Ziyoyev — Fanlar akademiyasi Tarix instituti direktori

J. Ismailova — Fanlar akademiyasi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi direktori

R. Kalonov — Toshkent shahar Nuroniylar jamoatchilik kengashi raisi

U. Teshaboyeva — Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi direktori

B. Onorboyev — Vazirlar Mahkamasining kotibiyat mudiri, *ishchi guruh kotibi*

Izoh:

Ishchi guruh a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, uning tarkibiga ushbu lavozimlarga yangidan tayinlangan shaxslar yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi;

Ishchi guruh ishida ishtirok etish uchun soha yo‘nalishidagi boshqa mutaxassislar ham jalb etilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-oktabrdagi F-5598-son farmoyishiga
2-ILOVA

Qatag‘on qurbonlarining nomlarini tiklash va xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha “YO‘L XARITASI”

T/r	Tadbir nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbai	Mas’ul ijrochilar
I. Tashkiliy-amaliy tadbirlar					
1.	Respublika ishchi guruhining tashkiliy yig‘ilishini o‘tkazish va ish rejasini tasdiqlash	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil oktyabr	—	Respublika ishchi guruhi
2.	Qatag‘on qurbonlarini nomma-nom aniqlash maqsadida mamlakatimiz hududlarida malakali olimlar va mutaxassislardan iborat tegishli guruhlarni tuzish va ularning samarali faoliyati uchun hududlardagi oliy o‘quv yurtlari bazasida zarur shart-sharoitlar yaratish	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil oktyabr	—	Respublika ishchi guruhi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Majidov)
3.	Olimlar va mutaxassislardan iborat tegishli guruhlar faoliyatini amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi Yo‘riqnoma va namunaviy ish	Respublika ishchi guruhining qarori	2020-yil oktyabr	—	Respublika ishchi guruhi, Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi (B. Hasanov), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Majidov)

	rejalarini ishlab chiqish				
4.	Ilmiy-ishchi guruhlar faoliyatiga ko‘maklashish bo‘yicha tuman va shaharlarda davlat va jamoat tashkilotlari, Nuroniylar jamoatchilik kengashlari hamda fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan faollarni biriktirish	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil oktyabr	—	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi (R. Mamatov)
5.	Qatag‘on qurbonlarining nomlarini aniqlash borasida izlanishlar ko‘lamini kengaytirish maqsadida Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi hamda hududlardagi oliy ta’lim muassasalaridagi muzeylarning ilmiy xodimlari uchun vazirlik va idoralarning idoraviy arxivlaridan foydalanish imkoniyatini yaratish	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil oktyabr oyidan boshlab doimiy ravishda	—	Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi (B. Hasanov), O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi, Oliy sud (K. Kamilov), Mudofaa vazirligi (B. Qurbonov), Ichki ishlar vazirligi (P. Bobojonov), Davlat xavfsizlik xizmati (A. Azizov), “O‘zarxiv” agentligi (U. Yusupov), mutasaddi vazirlik va idoralar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
6.	“Inson — aziz, xotira — muqaddas” degan g‘oya asosida barcha tuman va shaharlar, mahallalarda aholi, ayniqsa, yosh avlodni mustaqillik va adolat tantanasi uchun kurashgan fidoyi ota-	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil oktyabr -noyabr	—	Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi (R. Mamatov), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Majidov), Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi (M. Xojimatov),

	bobolarimizning xotirasiga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning ko‘rsatgan jasorati va ibratli faoliyatlarini targ‘ib etishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarini tashkil etish bo‘yicha tashviqot guruhlarini tuzish				Yoshlar ishlari agentligi (A. Sa’dullayev), hududiy Nuroniylar jamoatchilik kengashlari
7.	El-yurtimiz ozodligi va erkinligi yo‘lida jasorat ko‘rsatgan qatag‘on qurbonlarining avlodlari bo‘lgan kam ta’minlangan oilalarga moddiy va ma’naviy yordamlar ko‘rsatish	Tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy	Mahalliy hokimliklarning budjetdan tashqari mablag‘lari, “Mahalla” fondi va “Nuroniy” jamg‘armasi mablag‘lari, homiylik mablag‘lari	Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, “Mahalla” fondi (D. Usmanov), “Nuroniy” jamg‘armasi (S. Turdiyev)
8.	Ishchi guruhlarning tavsiyalari asosida, qatag‘onga uchragan yurtdoshlarimiz tug‘ilib voyaga yetgan va istiqomat qilgan hududlardagi mahallalarda va umumta’lim maktablarida xotira burchaklarini tashkil etish	Tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy	“Mahalla” fondi, Xalq ta’limi vazirligining budjetdan tashqari mablag‘lari	Respublika ishchi guruhi, Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi (B. Hasanov), Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi (R. Mamatov), Xalq ta’limi vazirligi (Sh. Shermatov)
9.	“Qatag‘on qurbonlari” xotira kitoblari asosida qatag‘on qurbonlarining nomlarini Toshkent shahridagi “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasida barpo etiladigan ramziy kitob sahifalariga kiritish	Hukumat qarori loyihasi	2022-2023-yillar mobaynida	Davlat budjeti mablag‘lari	Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, “Shahidlar xotirasi” jamoat fondi (B. Hasanov), Moliya vazirligi (T. Ishmetov), Qurilish vazirligi (B. Zakirov), Toshkent shahar hokimligi (J. Artikxodjayev)
10.	Ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish jarayonida	Tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy	—	Respublika ishchi guruhi, Oliy sud

	aniqlangan, ayrim sabablarga ko‘ra reabilitatsiya qilinmay qolib ketgan qatag‘on qurbonlari nomlarini oqlash yuzasidan belgilangan tartibda takliflar kiritish				(K. Kamilov), mutasaddi vazirlik va idoralar
II. Ilmiy-tadqiqot ishlari					
11.	Shahid bo‘lgan yurtdoshlarimiz nomini abadiylashtirish va kelgusi avlodlarga yetkazish maqsadida hududlar kesimida ular haqidagi ko‘p jildlik “Qatag‘on qurbonlari” xotira kitoblarini nashrga tayyorlash hamda chop etish	Ilmiy-tadqiqot ishlari	2021-2022-yillar mobaynida	Davlat budjeti mablag‘lari, mahalliy hokimliklarning budjetdan tashqari mablag‘lari, “Shahidlar xotirasi” jamoat fondi mablag‘lari	Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, “Shahidlar xotirasi” jamoat fondi (B. Hasanov), Moliya vazirligi (T. Ishmetov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A. Xodjayev), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
12.	Nomlari aniqlangan qatag‘on qurbonlarining har biri haqida kitoblar, risolalar tayyorlash va nashr etish	Ilmiy-tadqiqot ishlari	2021-yildan boshlab muntazam ravishda	Davlat budjeti mablag‘lari, mahalliy hokimliklarning budjetdan tashqari mablag‘lari, “Shahidlar xotirasi” jamoat fondi mablag‘lari, homiylik mablag‘lari	Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, “Shahidlar xotirasi” jamoat fondi (B. Hasanov), Oliy va o‘rta maxsus ta’limi vazirligi (I. Majidov), Moliya vazirligi (T. Ishmetov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A. Xodjayev), mutasaddi vazirlik va idoralar, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari
13.	Chor Rossiyasi mustamlakasi va mustabid tuzum	Chora-tadbirlar rejasi	Doimiy	Davlat budjeti mablag‘lari,	Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi

	davrida mamlakatimiz ozodligi uchun kurashgan va qatag‘onga uchragan ota-bobolarimiz hayoti va faoliyatini o‘rganish, bu yo‘nalishdagi ilmiy-tadqiqot ishlarini samarali tashkil etish			homiylik mablag‘lari	(B. Hasanov), Oliy va o‘rta maxsus ta’limi vazirligi (I. Majidov), Moliya vazirligi (T. Ishmetov), Fanlar akademiyasi (B. Yo‘ldoshev), “O‘zarxiv” agentligi (U. Yusupov), mutasaddi vazirlik va idoralar
14.	Mustaqillik va adolat tantanasi uchun kurashgan ota-bobolarimiz haqida ilmiy-tarixiy kitoblar va fotoalbomlar tayyorlash	Tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy	Davlat budjeti mablag‘lari, homiylik mablag‘lari	Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi (B. Hasanov), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Majidov), Moliya vazirligi (T. Ishmetov), Fanlar akademiyasi (B. Yo‘ldoshev), “O‘zarxiv” agentligi (U. Yusupov), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A. Xodjayev), mutasaddi vazirlik va idoralar
15.	Qatag‘onga uchragan shaxslarning hayoti va faoliyati, mamlakatimizda sodir bo‘lgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, muayyan tarixiy voqealarga oid ilmiy loyihalarni ilmiy-tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasi talablariga muvofiq tanlovlar asosida shakllantirish va ilmiy loyihalarning amalga oshirilishini ta’minlash	Fundamental tadqiqotlar	Doimiy	Ilmiy-tadqiqot davlat dasturlari uchun ajratilgan mablag‘lar	Innovatsion rivojlanish vazirligi (I. Abdurahmonov), Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi (B. Hasanov), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Majidov), Fanlar akademiyasi (B. Yo‘ldoshev), mutasaddi vazirlik va idoralar
16.	Qatag‘onga uchragan davlat, jamoat arboblari, fan	Fundamental tadqiqotlar	Doimiy	Ilmiy-tadqiqot davlat dasturlari uchun ajratilgan	Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi

	va madaniyat, adabiyot va san’at namoyandalarining asarlarini tayyorlash va chop etish			mablag‘lar	(B. Hasanov), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Majidov), Fanlar akademiyasi (B. Yo‘ldoshev), Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A. Xodjayev), “O‘zarxiv” agentligi (U. Yusupov), O‘zbekiston Milliy kutubxonasi (U. Teshaboyeva), mutasaddi vazirlik va idoralar
17.	Qatag‘on qurbonlari bo‘lgan ajdodlarimizning har biri bo‘yicha multimedia mahsulotlarini tayyorlash	Tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy	Ijrochilarning mablag‘lari	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Majidov), Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi (B. Hasanov), Xalq ta’limi vazirligi (Sh. Shermatov), Fanlar akademiyasining Tarix instituti (A. Ziyo), O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi (Sh. Yovqochev)
18.	Qatag‘on qurboni bo‘lgan jadidlarni respublika oliy ta’lim muassasalariga biriktirish orqali ularning ilmiy-ijodiy merosini chuqur o‘rganish va targ‘ib qilish tizimini yaratish	Tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy	—	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Majidov), Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi (B. Hasanov), mutasaddi vazirlik va idoralar
19.	Mustabid tuzum davrida qatag‘on qurboni bo‘lgan vatandoshlarimiz hayoti va faoliyati, o‘sha paytlarda mamlakatimizda hukm surgan murakkab ijtimoiy-	Tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy	Davlat budjeti mablag‘lari, ijrochilarning mablag‘lari	Respublika ishchi guruhi, Yozuvchilar uyushmasi (S. Saidov), Jurnalistlar ijodiy uyushmasi (S. Hakimov), “O‘zbekkino” Milliy

	siyosiy jarayonlar, muayyan tarixiy voqealar haqida badiiy va publitsistik asarlar, kinofilmlar tayyorlash ishlarini tashkil etish, yozuvchi va shoirlar, jurnalistlar, rejissorlar o‘rtasida ushbu mavzuga doir eng yaxshi asarlar tanlovini o‘tkazish				agentligi (F. Abduholiqov), mutasaddi vazirlik va idoralar
III. Ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar					
20.	“Inson — aziz, xotira — muqaddas” degan g‘oya asosida barcha tuman va shaharlar, mahallalarda aholi, ayniqsa, yosh avlodni mustaqillik va adolat tantanasi uchun kurashgan fidoyi ota-bobolarimizning xotirasiga hurmat ruhida tarbiyalash, ularning jasorati va ibratli faoliyatlarini targ‘ib etishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish	Tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy	Ijrochilarning mablag‘lari	Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi (M. Xojimatov), Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi (R. Mamatov), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Majidov), Din ishlari bo‘yicha qo‘mita (A. Ahmedov), Yoshlar ishlari agentligi (A. Sa’dullayev), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, hududiy Nuroniylar jamoatchilik kengashlari
21.	Mustaqillik va adolat tantanasi uchun kurashgan ota-bobolarimiz haqida badiiy va hujjatli filmlar yaratish	Tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy	Davlat budjeti mablag‘lari	“O‘zbekkino” milliy agentligi (F. Abduxoliqov), Milliy teleradiokompaniya (A. Xadjayev), Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi (B. Hasanov),

					“O‘zarxiv” agentligi (U. Yusupov), mutasaddi vazirlik va idoralar
22.	Qatag‘on qurbonlarining nomlarini tiklash va xotirasini abadiylashtirish bilan bog‘liq jarayonlarni, ishchi guruhlar faoliyatini keng yoritish, shuningdek mavzuga oid turkum teleko‘rsatuv va radioeshittirishlar tayyorlab efirga uzatish, matbuot nashrlari va Internet sahifalarida maqolalar e’lon qilish	Tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy	—	Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (A. Xodjayev), Milliy teleradiokompaniya (A. Xadjayev), Milliy axborot agentligi (A. Ko‘chimov), ommaviy axborot vositalari
23.	Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi hamda uning hududlardagi oliy ta’lim muassasalari qoshidagi bo‘limlari bazasida o‘quvchi-talabalar uchun mustaqillik va adolat tantanasi yo‘lida kurashgan fidoyi ota-bobolarimizning jasorati va ibratli faoliyatlari haqida targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish	Tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy	—	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Majidov), Xalq ta’limi vazirligi (Sh. Shermatov), Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi (B. Hasanov)
IV. Xorijiy davlatlardagi vakolatli muassasalar bilan hamkorlikda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar					
24.	Xorijiy davlatlardagi turli arxiv, muzey, kutubxona va boshqa ilmiy-ma’rifiy muassasalar hamda tegishli mutaxassislar bilan aloqalar o‘rnatish	Tashkiliy chora-tadbirlar	2020-yil oktyabr oyidan boshlab reja asosida	—	Tashqi ishlar vazirligi (F. Arziyev), Respublika ishchi guruhi, Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi (B. Hasanov)

25.	Qatag‘on qurboni bo‘lgan vatandoshlarimiz hayoti va faoliyatiga oid chet ellardagi mavjud manbalarni izlab topish va o‘rganish maqsadida ilmiy ekspeditsiyalarni tashkil etish	Tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy	Davlat budjeti mablag‘lari	Respublika ishchi guruhi, Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi (B. Hasanov)
26.	Qatag‘on qurboni bo‘lgan vatandoshlarimizning nomlarini tiklash maqsadida xorijiy davlatlardagi ilmiy-tadqiqot muassasalari, arxivlar va turdosh muzeylar bilan hamkorlikda xalqaro grantlarni jalb etgan holda ilmiy loyihalarni amalga oshirish	O‘zaro hamkorlik kelishuvlari	Doimiy	Xalqaro va xorijiy tashkilotlarning grant mablag‘lari	Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi (B. Hasanov), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Majidov), Investitsiyalar va savdo vazirligi (L. Kudratov), Tashqi ishlar vazirligi (F. Arziyev), Innovatsion rivojlanish vazirligi (I. Abdurahmonov), mutasaddi vazirlik va idoralar
27.	Qatag‘on qurbonlarining nomlarini tiklash va xotirasini abadiylashtirish bo‘yicha xalqaro konferensiyalar va davra suhbatlarini o‘tkazish	Tashkiliy chora-tadbirlar	Alohida reja asosida	Ijrochilarning mablag‘lari	Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi (B. Hasanov), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Majidov), Fanlar akademiyasi (B. Yo‘ldoshev), mutasaddi vazirlik va idoralar
V. Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi hamda hududlardagi oliy ta’lim muassasalari tuzilmalaridagi muzeylarning faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar					
28.	Quyidagilarni nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjat loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish: Qatag‘on qurbonlari xotirasi	Hukumat qarori loyihasi	2020-yil noyabr	davlat budjeti mablag‘lari, xalqaro va xorijiy tashkilotlarning grant mablag‘lari,	Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi (B. Hasanov), Moliya vazirligi (T. Ishmetov), Qurilish vazirligi (B. Zakirov),

	davlat muzeyi va hududlardagi oliy ta’lim muassasalari tuzilmalaridagi muzeylarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash; Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi xodimlari uchun alohida xizmat binosini qurish; Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi hamda hududlardagi oliy ta’lim muassasalari tuzilmalaridagi muzeylarda qo‘shimcha ilmiy va mutaxassis xodimlar shtat birliklari joriy etilishini belgilagan holda namunaviy tuzilmalarni tasdiqlash; Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyining hududlardagi oliy ta’lim muassasalari tuzilmalaridagi muzeylar rahbarlari va ilmiy xodimlarining oylik ish haqlarini oshirish; “Shahidlar xotirasi” jamoat fondining homiylar guruhi tarkibini yangilash va ular tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish hamda xalqaro moliya institutlari, xorijiy tashkilotlarning grantlarini jalb etish.			homiylar mablag‘lari	Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Majidov), Investitsiyalar va savdo vazirligi (L. Kudratov), Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, mutasaddi vazirlik va idoralar
29.	Qatag‘on qurbonlari, shu	Tashkiliy	Doimiy	—	Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat

	jumladan, mustaqillik va adolat tantanasi uchun kurashgan fidoyi ota-bobolarimizning jasoratlari va ibratli faoliyati bilan tanishtirish maqsadida mahallalardagi o‘quvchi yoshlar uchun “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi, Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi hamda hududlardagi oliy ta’lim muassasalari tuzilmalaridagi muzeylarga sayohatlar uyushtirish. Bunda kam ta’minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj va nogironligi bo‘lgan oila farzandlari uchun sayohatlar davomida imtiyozlar belgilash.	chora-tadbirlar			muzeyi, “Shahidlar xotirasi” jamoat fondi (B. Hasanov), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Majidov), Xalq ta’limi vazirligi (Sh. Shermatov), Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi (R. Mamatov)
30.	Mustaqillik va adolat tantanasi uchun kurashgan fidoyi ota-bobolarimiz, qatag‘on qurbonlarining ko‘rsatgan jasoratlarini va ibratli faoliyatlarini keng targ‘ib etish maqsadida Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi hamda uning hududlardagi oliy ta’lim muassasalari qoshidagi bo‘limlariga turistlarning tashriflarini tashkil	Tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy	—	Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi (A. Akkulov), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Majidov), Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash vazirligi (R. Mamatov), Yoshlar ishlari agentligi (A. Sa’dullayev)

	etish va ularni sayyohlik yo‘nalishlariga kiritish				
31.	Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi hamda uning hududlardagi oliy ta’lim muassasalari qoshidagi bo‘limlarining fondlari va ekspozitsiyalarini yangi topilgan ma’lumotlar, hujjatlar va boshqa eksponatlar bilan muntazam ravishda boyitib borish	Tashkiliy chora-tadbirlar	Doimiy	Ijrochilarning mablag‘lari	Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi, “Shahidlar xotirasi” jamoat fondi (B. Hasanov), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Majidov)
32.	Qatag‘on qurbonlari, shu jumladan, mustaqillik va adolat tantanasi uchun kurashgan fidoyi ota-bobolarimizning jasoratlari va ibratli faoliyatlari to‘g‘risida ma’lumot beruvchi alohida rasmiy internet saytini yaratish	Tashkiliy chora-tadbirlar	2021-yil yanvar	Davlat budjeti mablag‘lari	Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi (Sh. Sadikov), Qatag‘on qurbonlari xotirasi davlat muzeyi (B. Hasanov), Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi (I. Majidov), “O‘zarxiv” agentligi (U. Yusupov), mutasaddi vazirlik va idoralar

(Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 09.10.2020-y., 08/20/5598/1377-son)